XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-aprel VI-43-35-6-0-K/24 Namangan viloyati

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-41-121-6-0-K/23-son qarori 3-ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslarning mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash haqida” 2023-yil 29-dekabrdagi VI-41-121-6-0-K/23-son qarori 3-ilovasiga o‘zgartirish kiritish maqsadida, Namangan viloyati soliq boshqarmasining 2024-yil 6-fevraldagi 19/10-09238-son taklif xatini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslarning mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash haqida” 2023-yil 29-dekabrdagi VI-41-121-6-0-K/23-son qarori 3-ilovasiga ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilsin.

2. Namangan viloyati soliq boshqarmasi (SH.Imomov) ushbu qaror ilovasi bilan tasdiqlangan Namangan viloyatida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha 2024-yil uchun mutloq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hududiy soliq organlari orqali besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlasin.

3. Mazkur Kengash qarori “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Qarordan norozi bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda tegishli vakolatli organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

5. Ushbu Kengash qarorining ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va

tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Z.Xodjayev va viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi



ABDURAZAKOV
SHAVKAT
SHOKIRDJANOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2024-yil 25-apreldagi
VI-43-35-6-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha 2024-yil uchun mutloq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kamaytiruvchi koeffitsientlar miqdori

№	Tuman (shahar) nomi	Qo‘llaniladigan koeffitsient
1	Namangan shahar	1,0
2	Mingbuloq tumani	1,0
3	Kosonsoy tumani	1,0
4	Namangan tumani	1,0
5	Norin tumani	1,0
6	Pop tumani	1,0
7	To‘raqo‘rg‘on tumani	1,0
8	Uychi tumani	1,0
9	Uchqo‘rg‘on tumani	1,0
10	Chortoq tumani	1,0
11	Chust tumani	1,0
12	Yangiqo‘rg‘on tumani	1,0
13	Davlatobod tumani	1,0
14	Yangi Namangan tumani	1,0